

SUV PARISI

Olis-olislarda suvlari bo'tako'z gulbargidek zangori, shaffof shisha singari tip-tiniq, hech bir kema langari yetolmaydigan chuqur bir dengiz bo'lgan ekan. Juda ko'p qo'ng'iroqlarni ustma-ust qo'ygandagina bu dengiz yuza-siga chiqish mumkin ekan. Dengiz tubida suv osti xalqi yashar ekan.

Tag'in bu suvning tubi oppoq qumdan iborat tap-ta-qirlik ekan-da, deb o'ylamang. Yo'q, u yerda shox-u barglari o'ta egiluvchan g'aroyib daraxt va gullar o'sib yotar, ular suvning jinday harakatidan ham xuddi jonlidek tebranib turar ekan.

Bu shoxlar orasida esa bizning dunyomizdagi ochiq havodagi qushlar kabi katta-kichik baliqlar orom olishar ekan. Dengizning eng chuqur joyida dengiz shohining saroyi joylashgan bo'lib, uning devorlari marjondan, baland qirrador oynalari eng sof kahrabodan, tomi esa chig'anoqlardan iborat ekan, bu chig'anoqlar suvning ko'tarilib-pasayishiga mos ravishda goh ochilib, goh bekilib turar, bu juda go'zal manzara ekan; chunki har qaysi chig'anoq ichida jilolanib turgan marvarid bo'lib, uning har biri naq qirolicha oliyalarining tojiga ajoyib bezak bo'la olishi mumkin ekan-da.

Dengiz shohi allaqachon tul qolgan bo'lib. uning ro'zg'orini kampir onasi eplashtirib turar ekan; u aqlli ayol bo'lsa-da, o'z nasl-nasabi bilan haddan ziyod g'ururlanar, dumiga naq o'n ikkita ustritsa taqib yurar, holbuki, boshqa amaldorlarga faqat oltita ustritsa taqib yurish uchun ruxsat berilgan ekan, xolos. Shunisini aytmaganda, kampir har qanday maqtovg'a loyiq ekan, xususan. jajji nevaralari — malikalarni jon-dilidan yaxshi ko'rishini aytmaysizmi? Malikachalar olti nafar bo'lib. biri-biridan go'zal, lekin eng kenjasi hammasidan ma'suma, badani atirgul kabi toza va nafis, ko'zlari dengiz kabi tubsiz va moviy ekan. Faqat uning ham opalari kabi oyoqlari yo'q, oyoq o'rniga xuddi baliqnikidek dumi bor ekan.

Malikalar uzzukun hovlida, devorlarida haqiqiy gullar o'sib yotgan keng-mo'l chodirlarda o'ynashar ekan. Kattakon kahrabo oynalar ochilganda, xuddi bizning uyimizga qaldirg'ochlar uchib kirgani kabi, baliqlar ichkariga suzib kirar, derazalar lang ochib qo'yilganida baliqlar to'g'ridan to'g'ri jajji malikalar yoniga suzib kelar, ularning qo'lidan yemak yer, malikalar ularning ustini silamoqchi bo'lishsa jimgina turib berishar ekan.

Saroy oldida kattakon bog' bo'lib, unda alvondek qizil va to'q zangori daraxtlar o'sib yotar, ularning mevalari tilladek tovlanib, gullari olovdek yashnab turar. novda-yu barglari tinimsiz tebrangani-tebrangan ekan. Yer sidirg'a mayin qumdan iborat bo'lib, oltingugurt olovi kabi zangori tovlanar ekan. Bu yerda hamma narsa garoyib bir moviylikka belanib yotar, dafa'tan bu yerga tushib qolsang, o'zingni dengiz tubida emas, balki yuksak fazoga chiqib qolgandek, boshing ustini ham, oyog'ing ostini ham osmon qurshab olgandek his etar ekansan kishi. Sokin paytlarda bu tubanlikdan quyosh xuddi gulkosasidan yog'du taralib yotgan arg'uvongulga o'xshab ko'rinar ekan.

Bog'da har bir malikaning o'z burchagi bo'lib, bu yerga ular istagan narsalarini kovlab o'tqazishlari mumkin ekan. Malikalardan biri jo'yak tortib, kitga o'xshash gulzor yaratibdi, ikkinchisi suv parisiga o'xshab ketadigan gulzor qilishni o'ylab topibdi, eng kichkina malika esa quyoshdek dum-dumaloq jo'yak olib, unga

xuddi quyoshdek alvon gullar o'tqazibdi. Kichkina malika judayam g'alati, kamgap, o'ychangina qizcha ekan. Opalari cho'kkan kemalardan topib olishgan turli-tuman ashyolar bilan o'zlarini bezatishar, kenjasi esa faqat dengiz tepasidagi quyoshga o'xshash alvon gullarni, shuningdek, marmar haykalni juda yaxshi ko'rar ekan. Bu sof oppoq toshdan yasalgan go'zal yigitchaning haykali bo'lib, u kema halokati tufayli dengiz tubiga cho'kib tushgan ekan. Kichkina suv parisi haykal yoniga pushti majnuntol o'tqazibdi, uning tolim-tolim novdalari zangori qumchil tubanlikda yotgan haykal uzra eshilib, o'z tebranishiga mos ravishda nofarmon soya solib turar, bu esa manjuntolning novda va ildizlari bir-biriga chirmashib, bir-birini erkalayotgandek ajoyib manzarani hosil qilar ekan.

Suv parisi hammadan ko'proq yuqoridagi, dengiz ustidagi odamlar dunyosi haqida hikoyalar tinglashni yoqtirar ekan. Keksa buvisi unga kemalar va shaharlar, odamlar va jonivorlar haqida nimaiki bilsa, hammasini aytib berar ekan. Suv parisiga, ayniqsa, yer yuzasidagi gullarning bu yerdagidan, dengiz tubidagidan boshqacha hid taratishi, o'rmonlarning yam-yashilligi, shoxlarga qo'nib olgan baliqlarning kishini maftun etgudek jarangdor va yoqimli sayrashlari g'aroyib mo'jiza bo'lib tuyular ekan. Buvisi qushlarni baliq deb atar, yo'qsa nevaralari uning nima ekanligini tushunmas, chunki ular tug'ilganlaridan beri qush zotini ko'rmagan ekanlar.

— Qachonki o'n besh yoshga to'lsangiz, — der ekan buvi, — sizlarga suv yuzasiga suzib chiqish, oy yog'dusida qoya ustida o'tirish, yonginangizdan suzib o'tayotgan ulkan kemalarni, o'rnon va shaharlarni tomosha qilish uchun ruxsat beriladi!

Bu yil katta malika naq o'n besh yoshga to'lar, biroq opa-singillar sutma-sut tug'ilganliklari uchun kichkina malikaning dengiz tubidan yuqoriga suzib chiqib, biz yer yuzidagilarning qanday yashayotganligimizni tomosh qilishi uchun hali besh yil bor ekan. Lekin har bir malika birinchi kuni nimalarni ko'rgani, o'ziga hammadan ko'proq nima yoqib qolgani haqida boshqalarga so'zlab berishni va'da qilibdi, chunki buvilarining hikoyalari ularni qoniqtirmas, yanada ko'proq narsalarni bilishni istar ekanlar. Hammadan ko'proq kutishga to'g'ri keladigan eng kichik, kamgap, o'ychan suv parisi dengiz yuzasiga suzib chiqishni opalaridan ko'ra ko'proq istar ekan. U o'z kechalarini ochiq deraza oldida. baliqlar dum va qanotlari bilan to'lqinlatib yotgan to'q zangori suvdan yuqoriga tikilganicha o'tkazar ekan. U oy va yulduzlarni tomosha qilar, garchi ularning tusi oqaribroq qolsa ham, ammo suv ostida bizdagidan ancha kattarib ko'rinar ekan. Agar ularning ostidan qora bulut singari biror narsa suzib o'tsa, suv parisi bilar ekanki, hozir yo kit suzib o'tayotir, yoki kattakon kema, bu kemaning ichi odamlarga liq to'la, lekin tubanlikda oppoq qo'llarini cho'zganicha kema tomon talpinayotgan ma'sumgina suv parisi bu odamlardan hech birining xayoliga ham kelmas ekan.

Mana nihoyat, to'ng'ich malika o'n besh yoshga to'libdi va unga suv yuzasiga suzib chiqish uchun ruxsat berishibdi.

Uning qaytib kelganidan keyingi hikoyalarini bir eshitsangiz! Hammasidan ajoyibi, deya hikoya qilibdi u, dengizning sokin paytida oy yog'dulari ostida qirg'oq sayozligida yotganicha kattakon shaharni tomosha qilishdir. U yerda yuzlab yulduzlar kabi olovlar miltillab yotadi, musiqa yangrab, olovlar

shovqini, odamlarning gangir-gunguri eshitilib turadi, qo'ng'iroqxonalar va ularning minoralari ko'rinib, qo'ng'iroqlar jaranglab turadi. Shuning uchun ham u yerga borish mumkin emas, lekin shunaqangi borging keladiki!

Uning hikoyasini kichkina singlisi nihoyatda berilib tinglabdi. So'ngra esa, kechqurun ochiq deraza oldida turganicha to'q zangori suv ostidan yuqoriga tikilib, kattakon sershovqin va gavjum shahar haqida o'y sura ketibdi, hatto qo'ng'iroq sadolarini eshitganday bo'libdi.

Bir yildan so'ng ikkinchi opasiga ham suv yuzasiga ko'tarilish va istagan joyiga suzib borish uchun ruxsat tegibdi. U quyosh botishi bilanoq, dunyoda bundan go'zalroq manzara yo'q degan to'xtamga kelib, suv yuzasiga qalqib chiqibdi. Osmon butunlay tilla rang tusda deb hikoya qilibdi u, bulutlar esa, oh, shu qadar chiroyli, ta'rifga so'z ojiz. Alvon va binafsharang bu bulutlar osmon uzra suzib yuribdi, lekin yovvoyi oqqushlar galasi xuddi uzun oppoq harir ro'mol singari quyosh tomon bulutlardan ham tezroq uchib bormoqda. Biroq quyosh suvga cho'kib ketdi, dengiz va bulutlardagi pushti shu'la so'nib qoldi.

Oradan bir yil o'tgach, uchinchi opasi tepaga ko'tarilibdi. Bu oralaridan eng jasuri bo'lib, u dengizga quyiladigan keng daryo bo'ylab suzib ketibdi. Bu yerda u toklar o'sib yotgan tepaliklarni, g'aroyib o'rmonlar orasidagi saroy va qo'rg'onlarni tomosha qilibdi. Qushlarning sayrashini tinglabdi, quyosh esa shu qadar qattiq qizdiribdiki, hovur taralayotgan yuzini sovutib olish uchun bir necha bor suvga sho'ng'ib chiqibdi. Ko'rfazda u bir gala kichkintoy odam bolalariga duch kelibdi, ular qip-yalang'och yugurganlaricha bir-birlariga suv sepishar ekan. Malikaning ular bilan o'ynagisi kelibdi, biroq ular bundan qo'rqib qochib ketishibdi, ularning o'rniga qandaydir qop-qora kichik bir jonivor paydo bo'libdi. Bu hayvon it bo'lib, malika o'z umrida hali biror marta ham itni ko'rmagan ekan, u qizga qarab shunday dahshatli huribdiki, malika qo'rqqanidan qaytib dengizga suzib ketibdi. Ammo u mo'jizaviy o'rmonlarni, yam-yashil adirlarni, baliqsimon dumi bo'lmasa ham suza oladigan ajoyib bolalarni hech qachon unutilmas ekan.

To'rtinchi opasi unchalik jasur emas ekan, u ochiq dengizdan nari ketmabdi va shu joyni eng yaxshi joy deb hisoblar ekan: dengizning bir necha mil olisliklari ko'zga yaqqol tashlanib turar, tepadagi osmon ulkan shisha gumbazga o'xshar ekan. U kemalarni ham ko'ribdi, faqat oraliq juda olis bo'lganligi uchun ular baliqchi qushga o'xshab ko'rinibdi, tag'in dengizda uchqur delfinlar o'mbaloq oshib o'ynar, kitlar burunlaridan tepaga suv purkar, go'yo shu atrofda yuzlab favvoralar suv otib yotganga o'xshar ekan.

Nihoyat, beshinchi singilning ham navbati yetib kelibdi. Uning tug'ilgan kuni qishga to'g'ri kelibdi, shuning uchun ham u boshqalar ko'ra olmagan narsalarni ko'ribdi. Dengiz sidirg'asiga yam-yashil edi, deb hikoya qilibdi u, hamma joyda ulkan muz tog'lari suzib yuribdi, tusini xuddi marvarid deysiz, lekin ular odamlar quradigan har qanaqangi qo'ng'iroqxonadan nihoyatda baland. Ular judayam jilvador bo'lib, xuddi olmos kabi yarqirab turar ekan. Malika ulardan eng kattasining ustiga o'tirib olibdi. shamol uning uzun sochlarini to'zg'itar, dengizchilar cho'chinqirab bu joyni chetlab o'tar ekanlar.

Kechga borib osmonni bulutlar qoplab olibdi, chaqmoq chaqib, momaqaldiraq gumburlabdi, tundlashgan dengiz chaqmoq yorug'ida yaraqlagan ulkan muz bo'laklarini ko'kka sapchitar ekan. Kemalarning yelkanlarini tushirib qo'yishibdi, atrof qo'rquv va dahshat og'ushida qolibdi, malika esa hech narsa bo'lmagandek, o'zining muz tog'iga o'tirib, chaqmoqning zangori ilonizi tig'lari dengizga qanday sanchilishini tomosha qilganicha suzib boraveribdi.

Xullasi kalom, opalaridan biri ilk bor suv yuzasiga suzib chiqqanida barcha yangi va ajoyib narsalarni ko'rib jo'shib ketar, keyin esa, voyaga yetgan qiz istagan lahzasida tepaga ko'tarilishi mumkin bo'lganida, uning uchun hech narsaning qizig'i qolmas va darhol uyiga shoshar, oradan bir oy o'tgach esa, ana shu dengiz tubidan yaxshiroq joy yo'q, o'z uying — o'lan to'shaging deb aytar ekan.

Kechqurunlari besh opa-singil bir-birini quchib olganicha tez-tez yuqoriga suzib chiqishar ekan. Ularning hech bir odamnikiga o'xshamagan ajoyib ovozlari bo'lib, kemalar halokatidan darak beruvchi bo'ron boshlanishi arafasida ular kemalar oldida suzib yurishar, dengiz tubidan yaxshiroq joy yo'qligi haqida shirin qo'shiqlar kuylashar, dengizchilarni hech cho'chimay pastga tushishga undashar ekan. Biroq dengizchilar bu so'zlarni anglay olmas, buni shunchaki bo'ron shovqini deb bilishar, buning ustiga, ularga tubanlikda hech qanaqangi mo'jizani ko'rish nasib etmas — kema cho'kkanida odamlarning bo'g'ziga suv tiqilib qolar, dengiz shohining saroyiga tushguncha o'lib qolar ekanlar.

Opalari ana shu tariqa yuqoriga suzib ketganlarida kenja suv parisi ular ortidan yakka-yu yolg'iz suqlanib qolar, shunda juda yig'lagisi kelar, ammo suv parilari ko'zyoshi to'kolmas, bu esa unga yanada battarroq alam qilar ekan.

—Oh, qachon o'n beshga to'lar ekanman? — der ekan u. — Bilamanki, men o'sha dunyoni va unda yashaydigan odamlarni juda qattiq sevib qolaman!

Nihoyat, u ham o'n besh yoshga to'libdi.

—Mana, seni ham voyaga yetkazdik! — debdi beva qirolicha buvisi. — Beri kelchi, seni ham opalaring kabi bir yasantirib qo'yay!

U suv parisining boshiga oq gulchambar kiydiribdi, uning har bir gulbargi nimta marvariddan ekan, so'ng dumiga oliy nasab ramzi sifatida sakkizta ustritsa taqib qo'yibdi.

—Voy, og'riyapti-ku! — debdi suv parisi.

—Chiroyli bo'lishing uchun chidashing kerak! — debdi buvisi.

O'ziga qolsa suv parisi bu hashamlarni, bu og'ir gulchambarni itqitib yuborar ekan! O'zining joyaklaridagi alvon gullar bulardan ming chandon yaxshiroq ekan, lekin na iloj.

—Xayr! — deganicha u suv yuzasi sari havo pufakchasi kabi yengil va ravon suzib ketibdi.

U suvdan boshini chiqarganda quyosh endigina botgan, biroq bulutlar hamon pushti va zarhal tovlanib turar, bo'zimtir osmonda dastlabki yulduzlar chaqnay boshlagan; havo mayin, musaffo, dengiz tinch-sokin ekan. Nariroqda faqat bir yelkani ko'tarilgan uch machtali kema turar, atrofdagi qilt

etgan epkin yo'q ekan. Dengizchilar arqon va yelkancho'plarga o'tirib olishgan, palubadan musiqa va qo'shiq taralar ekan. Atrof butunlay zulmat og'ushiga g'arq bo'lganida kema yuzlab rang-barang chiroqlar shu'lasidan charog'on bo'lib ketibdi, go'yo bavoga barcha millatlarning bayroqlari ko'tarilganga o'xshar ekan. Suv parisi to'g'ri kayuta derazasiga suzib boribdi, har gal to'lqin uni o'z yelkalariga ko'targanida shaffof shisha orqali u ichkariga nazar tashlar ekan. U yerda bashang kiyinib olgan kishilar juda ko'p bo'lib, biroq hammasidan xushbichimi qora ko'zlari katta-katta yosh shahzoda ekan. U, aftidan, hali o'n oltiga ham to'lmagan ekan. Uning tug'ilgan kuni nishonlanayotgan, kemadagi tantananing sababi ham shu ekan. Dengizchilar palubada raqsga tushishmoqda ekan, yosh shahzoda chiqib kelganida ko'kka yuzlab mushaklar otilibdi, tevarak-atrof xuddi kunduzgidek yorishib ketibdi, bundan qo'rqib ketgan suv parisi dengizga sho'ng'ibdi, biroq yana darhol boshini chiqarib qarasa, go'yo osmondagi barcha yulduzlar dengizga, uning boshiga yog'ilayotgandek emish. Bunday mushakbozlikni u hech qachon ko'rmagan ekan. Ulkan quyosh charxpalagi aylanib yotar, g'aroyib olovsimon baliqlar moviy yuksaklikka otilar va bularning hammasi sokin, tiniq suvda aks etib turar ekan. Kema shu qadar charog'on ekanki, har bitta arqon yaqqol ko'rinib turar, odamlami esa aytmasa ham bo'lar ekan. Oh, yosh shahzoda naqadar yoqimtoy ekan. U goh jilmayib, goh kulganicha hammani qo'lini siqib chiqibdi, bu mo'jizaviy tunda musiqa tobora avjga chiqib borar ekan.

Vaqt allamahol bo'lib qolgan esa-da, suv parisi hamon kemadan va go'zal shahzodadan ko'z uzolmay turar ekan. Rang-barang chiroqlarni o'chirishibdi, mushaklar otishni bas qilishibdi, zambaraklar tin olibdi, biroq dengizning qa'ri junbisha kelib, guvullay boshlabdi. Suv parisi to'lqinlar kaftida tebranganicha hamon kayutaga termilib turaveribdi, birin-ketin yelkanlar ko'tarilib, kema tezlasha ketibdi, to'lqinlar tobora yuksak sapchibdi, bulutlar quyuqlashib, chekka-chekkalarda chaqmoq chaqa boshlabdi.

Bo'ron bosib kelayotganini ko'rib dengizchilar yelkanlarni tushirib qo'yishibdi. Kema chayqala-chayqala quturayotgan dengiz bo'ylab uchib ketibdi, qora qoyalar kabi yuksak to'lqinlar machtalar qadar yuksalib kemaga tahdid solibdi, kema esa goh oqqush kabi po'rtanalar orasiga sho'ng'ib ketar, goh esa dahshatli to'lqinlar yolida yuksakka sapchib chiqar ekan. Suv parisiga bularning barchasi yoqimli sayr kabi tuyulsa-da, biroq dengizchilarning ahvoli voy ekan. Kema g'ichirlab qarsillashga tushibdi; tolqinlar zarbidan uning qalin qobig'i ko'chib ketibdi, po'rtana kemani bosib tushibdi, machta qamish poyasidek ikkiga bo'linib ketibdi, kema yonboshga qiyshayib, yerto'lasiga suv bostirib kiribdi. Shundagina suv parisi odamlar qanaqangi xatarda qolganini anglab yetibdi, biroq uning o'zi ham tolqinlar chirpirak qilib yurgan g'o'la va kema parchalariga zo'rg'a chap berib qolar ekan. Bir lahzada atrof ko'zni yirtib yuborgudek zulmat og'ushida qolibdi, biroq yana chaqmoq chaqnaganida suv parisining ko'zi kemadagi odamlarga tushibdi. Hamma o'z jonini qutqarish payida ekan. U shahzodani axtara boshlabdi va kema parchalanib ketganida uning suvga qulab tushganini

ko'rib qolibdi. Avval suv parisi bundan juda xursand bo'lib ketibdi, chunki endi shahzoda suv qa'riga tushadi-da, biroq u shu zahoti odamlar suvda yashay olmasligini, shahzoda ham dengiz shohi saroyiga faqat o'lik holda tushishi mumkinligini eslab qolibdi. Yo'q, yo'q, u o'lmasligi kerak! Shunda u o'zini ezib tashlashi mumkinligini o'ylab ham o'tirmay, g'o'la va taxtalar oralab suzib ketibdi. U goh chuqur sho'ng'ib, goh to'lqinlar bilan yuksakka qalqib, nihoyat, yosh shahzoda yoniga yetib boribdi. U judayam holdan toygan, bo'ronli dengizda suzgani madori qolmagan ekan. Qo'l-oyoqlari o'ziga bo'ysunmay qo'ygan, chiroyli ko'zlari yumilib qolgan, agar suv parisi yordamga yetib kelmaganida cho'kib ketishi aniq ekan. Suv parisi uning boshini suvdan ko'tarib olganicha yonoqlariga o'zi va shahzodani to'lqinlar ixtiyoriga topshiribdi...

Ertalab bo'ron tinibdi. Kemadan esa asar ham qolmabdi. Dengiz uzra yana quyosh ko'tarilibdi, u shahzoda yanoqlariga go'yo qizillikni qaytargandek bo'libdi, biroq u hamon ko'zlari yumuqligicha yotar ekan.

Suv parisi shahzoda peshanasidagi sochlarini ortga qayirib, keng va chiroyli manglayidan o'pibdi. shunda shahzoda o'z bog'idagi marmar yigitga o'xshab ketishini his etibdi. U shahzodani yana bir bor o'par ekan, uning tirik qolishini juda-juda istabdi.

Nihoyat, olis-olislardagi quruqlikka, tepasida oqqush galalari kabi qor bosib yotgan yuksak moviy tog'larga ko'zi tushibdi. Shundoq sohilda g'aroyib o'rmonlar yastanib yotar, uning etagida esa cherkovmi yo monastir qad ko'tarib turar, buning nima ekanligini suv parisi aniq aytolmas, harholda, bilgani shu ekanki, bu bir bino ekan. Bog'da apelsin va limon daraxtlari o'sib yotar, shundoq darvoza oldida esa yuksak palmalar bo'y cho'zib turar ekan. Bu yerda dengiz qoyalar oralab sokin, lekin juda chuqur qo'ltiq orqali ichkari kirib borgan, qirg'oqda suvlar oppoq mayin qumlarni yuvib yotar ekan. Suv parisi shahzoda bilan xuddi shu sohilga suzib kelibdi va shahzodaning boshini kungay tomonga ko'tarib, qum ustiga yotqizib qo'yibdi.

Shu payt oppoq baland binoning qo'ng'iroqlari jaranglab, chopib chiqqan bir to'p qizlar galasi bog' bo'ylab sochilib ketibdi. Suv parisi suvdan turtib chiqqan yuksak qoyalar sari chekinib, soch va siynalarini dengiz ko'pigiga bekitibdi, endilikda uning qiyofasini hech kim ko'pikdan farqlay olmas ekan, shu tariqa u sho'rlik shahzodaga yordam bergani kimdir kelarmikan deya kuta boshlabdi.

Ko'p o'tmay bu qoya orasiga yoshgina bir qiz kelib qolibdi, avvaliga u juda qo'rqib ketibdi, lekin shu zahoti o'zini o'nglay olib, boshqalarni yordamga chaqiribdi, shunda suv parisi shahzodaning hushiga kelganligini, o'z atrofidagi kishilarga jilmayib qo'yganligini ko'ribdi. Suv parisiga esa tabassum hadya etmabdi, ana shu suv parisi o'zining hayotini qutqarib qolganligini u hatto bilmas ham ekan. Suv parisi ma'yus tortib qolibdi, shahzodani ulkan binoga olib kirganlarini ko'rgach, iztirob ichida suvga sho'ng'ibdi va o'z uyi tomon suzib ketibdi.

Shu-shu u avvalgidan ham kamgap, yanada o'ychan bo'lib qolibdi. Opalari undan ilk bor dengiz yuzasida nimalarni ko'rganligi haqida so'rashibdi, biroq u og'iz ochib hech narsa demabdi.

U ertalab va kechqurunlari shahzodani qoldirgan joyga tez-tez suzib borar ekan. Suv parisi u yerdagi bog'larda mevalarning qandoq yetilishini, so'ng ularni qanday terib olishlarini kuzatar, yuksak tog'larda qorlarning qandoq erishini tomosha qilar. biroq shahzodani hech ko'rmas va har safar uyiga tobora ko'proq g'ussaga cho'kib qaytar ekan. O'z bog'chasida shahzodaga o'xshash marmar haykalni quchib o'tirish uning uchun yagona yupanch bo'lib, hatto gullariga ham qaramay qo'yibdi. Gullar yovvoyilashib, yo'lkalarga tarvaqaylab ketishibdi, novda va yaproqlari daraxt shoxlariga chirmashib chiqib, bog'cha qorong'ilashib qolibdi.

Nihoyat, u chiday olmay bularning hammasini opalaridan biriga so'zlab beribdi. Voqeani bu opasidan boshqa opalari bilib olibdi, yana ikki-uch suv parisini, ya'ni eng yaqin dugonalarini aytmaganda, bu sirni boshqa hech kim eshitmabdi. Ulardan biri ham shahzodani tanir, kemadagi tantanani ham ko'rgan, hatto shahzodaning qayerda tug'ilganligi-yu qirolligi qayerda ekanligini ham bilar ekan.

— Birga suzib bora qolaylik, singiljon! — deyishibdi suv parisiga opalari va bir-birlarini quchganlaricha shahzoda saroyi yonidan dengiz yuzasiga qalqib chiqishibdi.

Saroy och-sariq jiloli toshlardan qurilgan, kattakon marmar zinapoyalari bo'lib, bu zinapoyalardan biri to'g'ridan to'g'ri dengizga enib kelar ekan. Tomlar uzra ajoyib zarhal gumbazlar savlat bilan yuksalgan, binoni qurshab olgan ustunlar orasida esa xuddi tirik odamlardek haykallar qo'r to'kib turar ekan. Yuksak oynavand derazalar ichkarisidan hashamdor xonalar ko'zga tashlanar, hamma joyga qimmatbaho ipak pardalar osilgan, gilamlar to'shalgan, devorlarni esa kattakon suratlar bezab turar ekan.

Ko'ring-u dong qoting! Eng katta zal o'rtasida favvora tizillab turar, suv chizimlari shiftdagi balanddan baland shisha gumbazga borib urilar, bu tomchilar va hovuz atrofida o'sib yotgan g'aroyib gullar og'ushida quyosh nurlari kamalakdek tovlanar ekan.

Endilikda suv parisi shahzoda qayerda yashashini bilib olibdi va saroyga qariyb har kuni kechqurun yoki tunda suzib keladigan bolibdi. Opalaridan hech biri quruqlikka bu qadar yaqinlashib borishga jur'at qila olmas, u esa hatto suvga uzun soya tashlab turgan marmar ayvon ostidan oqib o'tadigan torgina soyga ham suzib boraverar ekan. U ana shu yerda shahzodaga uzoqdan uzoq tikilib o'tirar, shahzoda esa oy yorug'ida men yakka-yu yolg'iz kezib yuribman deb o'ylar ekan.

Suv parisi uning hilpirab turgan bayroqlar qadalgan hashamdor qayig'ida mashshoqlar bilan suzib yurganini bir necha bor ko'ribdi. Suv parisi yam-yashil qamishzor orasidan kuzatib turar, mabodo odamlar uning shamolda tebranib turgan oppoq kumushsimon uzun qomatini ko'rib qolganlarida ham, buni qanot silkiyotgan oqqush deb o'ylar ekanlar.

U kechalari mash'ala bilan ov qilayotgan baliqchilarning shahzoda haqidagi suhbatlarini ko'p bora eshitar, ular shahzoda to'g'risida yoqimli gaplarni aytar, shunda suv parisi chalajon shahzodani toiqinlar osha sudrab kelib, unga hayot baxsh etganligidan shodlanib kctar ekan, suv parisi shahzodaning boshi o'z ko'ksida sokingina yotganini. o'shanda uni avaylab

o'pganlarini csdan chiqarmas ekan. Shahzoda esa u haqda hech narsa bilmas, suv parisi hatto uning tushiga ham kirmas ekan!

Suv parisi odamlarni yanada kuchliroq sevib, ular sari yanada qattiqroq talpinadigan bo'lib qolibdi; odamlar dunyosi unga o'z suv osti dunyosidan kengroq tuyula bosh-labdi, chunki ular o'z kemalarida dengizlar osha suza olar. bulutlardan ham yuksak cho'qqilarga chiqa bilar, o'rmon va dalalar yastanib yotgan mamlakatlari esa ko'z ilg'amas qadar bepoyon ekan! Suv parisi odamlar haqida, ularning hayoti borasida ko'proq narsalarni bilishni istar, biroq opalari uning hamma savollariga ham javob bera olmas. u esa buvisiga murojaat qilar ekan: kampir «yuqori dunyo»ni yaxshi bilar, haqli ravishda dengiz ustida yastanib yotgan olamni yer deb atar ekan.

—Agar odamlar cho'kib ketmasa, — deb so'rabdi suv parisi, — shunda ular o'lim nimaligini bilmay, biz singari abadiy yashaydilmirmi?

—Nima deyapsan! — deb javob beribdi buvisi. — Ular ham o'lishadi, ularning umri hatto biznikidan ham qisqaroq. Biz uch yuz yil yashaymiz; faqat bizni dunyodan o'tganimizdan so'ng dafn etishmaydi, hatto bizning qabrimiz ham yo'q, biz shunchaki dengiz ko'pigiga aylanib ketamiz.

—Men o'zimning barcha yuz yilliklarimni inson hayotining bir kuniga almashgan bo'lardim, — deb yuboribdi suv parisi.

—Bema'ni gap! O'ylashga ham arzimaydi bu! — debdi kampir. — Odamlarning yerda yashashidan ko'ra bizning bu yerda yashashimiz ming karra yaxshiroq!

—Demak. men ham o'lsam, dengiz ko'pigiga aylanib ketarekanman-da, to'lqinlar ohangini eshitmasekanman-da, g'aroyib gullarni ham, alvon quyoshni ham ko'rmas ekanman-da! Nahotki men odamlar orasida yashay olmasam?

—Yashashing mumkin, — debdi buvisi, — faqat buning uchun odamlardan biri seni shunday sevib qolishi kcrak-ki, sen uning uchun ota-onasidan ham azizroq bo'lishing lozim, u o'zining butun qalbi-yu o'y-xayolini senga baxsh etishi, senga uylanishi va mangu sodiq qolishi haqida ont ichishi shart. Lekin hech qachon bunday bo'lmaydi! Chunki biz uchun go'zal hisoblangan narsa — masalan, sening baliqsimon duming — odamlar uchun bema'nilik sanaladi. Ular go'zallik borasida hech vaqoni tushunishmaydi; ularning fikricha, go'zal bo'lish uchun go'yo ikkita beso'naqay tirgovichga, ya'ni ular tili bilan aytganda, oyoqlarga ega bo'lish kerak.

Suv parisi chuqur xo'rsinganicha alam bilan o'zining baliqsimon dumiga ko'z tashlabdi.

— Yeganimiz — oldimizda. yemaganimiz — ortimizda! — debdi kampir. — Erkinlikda o'ynab-quvnaymiz, uch yuz yil hazilakam muddat emas... Bugun kechqurun saroyimizda bal bo'ladi!

Endi bunaqangi ajoyibini yer yuzida ko'ra olmas ekansan! Tantana zalining devor va shiftlari qalin, juda shaffof shishadan ekan: devor bo'ylab yuzlab ulkan qirmizi va qoq o'rtasidan yashil alanga taratayotgan och yashil chig'anoqlar qator-qator bo'lib yotar, bu alanga butun zalni va shisha devorlar osha tevarak-atrofdagi dengizni charog'on etib turar ekan. Shisha devorlarga suzib kelgan katta-kichik baliq galalarining langachalari zarhal, kumush va

alvon ranglarda tovlanar ekan.

Zal o'rtasida enli suv shovullab oqib yotar, unda suv alvastilari va suv parilari ajoyib qo'shiqlar aytib, o'yinga tushib yotishar ekan. Bu qadar go'zal ovoz odamlarda bo'lmas ekan. Suv parisi hammadan yaxshiroq kuylabdi, barcha uni chapak chalib olqishlabdi. Hech kimda va hech qayerda — na dengizda, na yerda o'zinikidan ko'ra yoqimliroq ovoz yo'qligi haqidagi fikr xayolidan yalt etib o'tganida, atigi bir lahzagina xursand bo'lib ketibdi, biroq yana u suv yuzasidagi dunyo haqida, go'zal shahzoda to'g'risida o'ylay boshlashi bilanoq. birdan ma'yus tortib qolibdi. Saroyda o'yin-kulgi davom etar ekan. u oradan sekin sirg'alib chiqibdi va o'z bog'chasiga borganicha qayg'uga cho'mib o'ltiraveribdi. Qo'qqisidan suv yuzasidan valtorna¹ ovozini eshitib, o'ylab qolibdi: «Mana u yana o'z qayig'ida sayr etmoqda! Men uni naqadar sevaman! Otamdan ham, onamdan ham yaxshi ko'raman! Men bor qalvim bilan, bor o'y-xayollarim bilan unikiman, butun hayotimni, baxtimni jon-jon deb unga baxsh etgan bo'lar edim! Faqat u bilan birga bo'lish uchun hamma narsaga rozi edim. Hozircha opalarim otam saroyida o'yin-kulgi bilan ovora ekan, men dengiz jodugarining huzurigasuzib bora qolay. Men undan doim qo'rqaredim, lekin endi-likda u menga biror-bir maslahat berar yoki yordam qilar!»

'Valtorna - misdan yasalgan va puflab
chalinadigan musiqa asbobi.

Shunday deya suv parisi o'z bog'idan asov girdoblar og'ushida jodugar kampir huzuriga suzib ketibdi. U hali hech qachon bu yo'ldan suzib ko'rmagan ekan; bu yerlarda na birorta gul o'sar, na biror ko'kat bor — hamma yoq tap-taqir kulrang qumlikdan iborat ekan; bu qumlik uzra suv xuddi tegirmon toshidek guvullab aylanar, yo'lida duch kelgan hamma narsani o'z girdobiga tortib ketar ekan. Suv parisi jodugar hukmronlik qiladigan makonga yetish uchun ana shunday asov girdoblar oralab suzib boraveribdi. Yo'lning bu yog'i qaynoq pufakchalar chiqib yotgan bot-qoqlikdan iborat bo'lib, jodugar bu joylarni o'zining yo'sin balchig'i deb atar ekan. Uning qarorgohi yo'sin balchig'ining shuindoq yonginasida, g'aroyib o'rmon og'ushida bo'lib, unda daraxt va butalar o'rniga xuddi qumlar orasidan yorib chiqqan yuz boshli ilonga o'xshash yarim hayvon, yarim o'simlik—poliplar o'sib yotar ekan; ularning chuvalchang kabi bilanglab yotgan shoxlari barmoqlari uzun-uzun shilliq qo'lga o'xshab ketar ekan; poliplar ildizidan eng uchigacha tinimsiz tebranib yotar; chayir changaliga nimaiki tushsa, uni qaytib bo'shatmas ekan. Suv parisi qo'rqqanidan to'xtab qolibdi, mitti yuragi vahimadan dukillab ketibdi, hatto ortga qaytmoqchi ham bo'libdi-yu, ammo shahzoda yodiga tushib, o'zini o'nqlab olib-di; poliplarga ilashib qolmasligi uchun uzun sochlarini boshiga chamberak qilib, qo'llarini qovushtirib olibdi-da, ilang-bilang panjalarini cho'zganicha o'zi tomon talpinayotgan jirkanch poliplar oralab baliqdek suzib ketibdi. Suv parisi ular o'z panjasiga tushgan har bir narsani xuddi ombirdek mahkam siqib olganligini ko'ribdi; cho'kkan odamlarning oppoq skeletlari, kema rullari, har xil qutilar, turli jonivorlarning suyaklari, hatto bir suv parisi ham ularning iskanjasida ekan. Poliplar uni tutib olib, bo'g'ib o'ldirishibdi. Hammasidan bu manzara dahshatli ekan!

Mana, u ulkan, semiz suvilonlari o'zlarining sap-sariq, yoqimsiz qorinlarini namoyish etganча o'mbaloq

5-Qor malikasi

oshib yurgan sirpanchiq o'rmon sayhonligidan chiqib qolibdi. Sayhonlikning o'rtasida odamzotning oppoq suyaklaridan tiklangan bir uy bo'lib, unda naq dengiz jodugarining o'zi o'tirganicha, xuddi odamlar mitti qushchalarga o'z og'izlaridan qand berganlari kabi, u ham og'zidan baqaga yemak yedirmoqda ekan. Ujirkanch ilonlarni jo'jalarim deb atar, ularga o'zining kattakon, to'rqovoqdek ilma-teshik ko'kragiga kirib-chiqish uchun izn berib qo'ygan ekan.

—Bilaman, nega kelganingni bilaman! — debdi suv parisiga jodugar. — Ahmoqona ishga qo'l uryapsan, lekin men bari bir senga yordam beraman — bu o'z boshingga balo bo'ladi, go'zalim! Sen o'z dumingdan xalos bo'lib, uning o'rniga odamlardek ikkita tirgovichga ega bo'lmoqchisan. Yosh shahzoda seni sevib qolishini istab turibsan.

Jodugar shunaqangi shang'illab xunuk qahqaha uribdiki, baqa ham, suvilonlar ham loyqaga uchib tushishibdi.

—Ha mayli, ayni paytida kelding! — deya davom etibdi jodugar. — Ertaga ertalab kelganingda kechikar eding, natijada senga keyingi yilgacha yordam bera olmas edim. Men senga bir ichimlik tayyorlab beraman, uni olib quyosh chiqmay qirg'oqqa suzib borasan, u yerda o'tirib bu ichimlikni so'nggi tomchisigacha ichib tugatasan; shunda duming ikkiga ajrab, odamlar aytmoqchi, ko'rkam oyoqchalarga aylanadi. Ammo shunaqangi qattiq og'riydiki, xuddi qilich sanchayotganga o'xshaydi. Biroq seni kim ko'rsa, hali bunday sohibjamolga duch kelmaganligini aytadi! Sen o'zingning xiromon yurishlaringni saqlab qolasan — hech bir raqqosa senga teng kela olmaydi, biroq yodda tut: xuddi o'tkir tig' ustida yurgandek bo'lasan, oyoqlaring qonab ketadi. Shunga chiday olasanmi? Chiday olsanggina senga yordam beraman.

—Ha! — debdi suv parisi shahzodani eslab, titroq ovozda.

—Bilib qo'yki, — debdi jodugar, — agar odam qiyofasiga kiradigan bo'lsang, seni qayta suv parisiga aylantirib bo'lmaydi! Dengiz tubini ham, ota-onang uyini ham, opalaringni ham ko'ra olmaysan! Agar shahzoda seni o'z ota-onasidan ham ortiqroq sevib qolmasa, butun qalbini senga baxsh etib, o'ziga xotinlikka olmasa, sen halok bo'lasan; u boshqaga uylangan kunning ertasi ayni tong paytida yuraging parcha-parcha bo'ladi va o'zing dengiz ko'pigiga aylanib ketasan.

—Mayli! — debdi suv parisi rangi o'likdek oqarib.

—Tag'in sen yordamim uchun menga haqini to'lashing kerak, — debdi jodugar. — Bu arzon turmaydi! Sening judayam mo'jizaviy ovozing bor va u bilan shahzodani maftun etmoqchisan, lekin sen bu ovozingni menga berishing kerak. Men o'zimning bebaho ichimligim evaziga sening eng yaxshi narsangni olishim kerak, chunki men xuddi olovday o'tkir bo'lishi uchun bu ichimlikka o'z qonimni qo'shaman-da.

—Agar sen mening ovozimni olib qo'ysang, o'zimda nima qoladi? — deb so'rabdi suv parisi.

—O'zingni go'zal chehrang, ajoyib yurishlaring va gapirgudek ma'nodor ko'zlaring qoladi — inson qalbini zabt etish uchun senga shuning o'zi kifoya! Bo'ldi, qo'rqma: tilginangni chiqarsang, men uni sehrli ichimlik evaziga kesib olaman!

—Bo'pti! — debdi suv parisi. Jodugar ichimlik tayyorlash uchun olov ustiga qozon osibdi.

—Tozalik — go'zallikning onasidir! — deya u bir dasta tirik suvilon bilan qozonni artib tashlabdi.

So'ng u o'z ko'kragini tilib, qozonga qop-qora qonidan tomizibdi, ko'p o'tmay undan o'takani yorgudek g'alati shakldagi bug'lar buralib-buralib ko'tarila boshlabdi. Jodugar qozonga yangidan yangi dorivorlarni birin-ketin tashlayveribdi, ichimlik shunaqangi bilqillab qaynay boshlabdiki, ovozi timsoh yig'isiga o'xshar emish. Nihoyat, ichimlik tayyor bo'libdi, ko'rinishidan u buloq suvidek tip-tiniq ekan.

—Ol buni! — debdi jodugar suv parisiga ichimlikni uzatib.

So'ng uning tilini kesib olibdi, suv parisi gung bo'lib qolibdi — endi u na qo'shiq aytar, na gapira bilar ekan.

— Orqaga suzib ketayotganingda seni poliqlar chirmab olishadi, — debdi xayrlashayotgan jodugar, — sen ularga ichimlikdan bir tomchisini sepib yubor, shunda ularning qo'l-u barmoqlari qiyma-qiyma bo'lib ketadi.

Biroq suv parisiga buning hojati qolmabdi, chunki poliqlar uning qo'lida porloq yulduzdek yaraqlab turgan ichimlikni ko'rishlari bilanoq ortga chekinishar ekan. U o'rmondan tezda suzib o'tibdi, botqoq va asov girdoblar ortda qolibdi.

Mana, otasining saroyi; raqs zalidagi chiroqlar o'chirilgan, hamma uyquga kctgan ekan. Suv parisi endilikda u yerga borishga jur'at eta olmabdi — axir u gung bo'lib qolgan, ota uyini manguga tark etayotgan ekan-da. Yuragi g'ussadan yorilib ketgudek bo'libdi. Sekin bog'chasiga sirg'alib kirib, har bir opasining jo'yagidan bittadan gul uzib olibdi, o'z tug'ishganlariga minglab g'oyibona o'pichlar yo'llabdi va dengizning tund-moviy yuzasiga ko'tarilibdi.

U shahzodaning saroyi yonidan chiqib, uning keng marmar zinasiga borib o'tirganida hali quyosh chiqmagan ekan. Oy uni o'z g'aroyib moviy yog'dulari bilan yoritib turibdi. Suv parisi o'tdek ichimlikdan ichgan ekan, go'yo badaniga qo'shtig' nashtar sanchilgandek bo'libdi; hushidan ayrilib, o'likdek qulab tushibdi. Ko'zini ochganida dengiz uzra quyosh yaraqlab turar, a'zoyi badani o't tushgandek achishmoqda ekan. Qarshisida esa go'zal shahzoda unga hayrat bilan tikilib turar ekan. Suv parisi boshini quyi eggan ekan, o'zining baliqsimon dumi g'oyib bo'lib, uning o'rniga ikkita oppoq oyoqchalar paydo bo'lganini ko'rib qolibdi. Ammo u qip-yalang'och ekan, shuning uchun o'zining uzun, quyuq sochlariga burkanib olibdi. Shahzoda uning kim ekanligini, bu joylarga qanday kelib qolganligini so'rabdi, ammo u shahzodaga o'zining to'q moviy ko'zlari bilan beozor, g'ussaga botganicha tikilib turaveribdi: gapira olmaydi-ku, axir. Shunda shahzoda uning qo'ldan tutib, saroyga boshlab boribdi. Jodugar to'g'ri aytgan ekan: suv parisi har bir qadamini shunday azob bilan bosar ekan-ki. go'yo u o'tkir pichoq yoki ignalar ustidan yurib borayotgandek ekan, biroq u bu og'riqlarga dosh berib, shahzoda bilan qo'l ushlaganicha go'yo havoda

uchayotgandek yengil yurib ketibdi. Shahzoda va mulozimlari uning g'aroyib, ravon yurishlaridan hang-mang bo'lib qolishibdi. Suv parisiga ipak va shoyi liboslar kiydirishibdi, u saroydagi eng sohibjamol qizga aylanibdi, biroq hamon kuylash va gapirishdan mahrum, o'sha-o'sha gungligicha qolaveribdi. Kunlarning birida shahzoda va uning hukmdor ota-onalari huzuriga ipag-u zar liboslardagi kanizak qizlarni chorlashibdi. Ular qo'shiq ayta boshlashibdi, ulardan biri ayniqsa ajoyib kuylar ekan, shahzoda chapak chalib olqishlagancha unga qarab jilmayib qo'yibdi. Suv parisi bundan qayg'uga botibdi: axir bir paytlar u ham qo'shiq aytar, aytganda ham hammadan zo'r aytar ekan-da! «Oh, qani endi u bilan birga bo'lishim uchun o'z ovozimdan manguga ajralganimni shahzoda bilsa edi!»

So'ng mo'jizaviy musiqa sadolari ostida qizlar raqs boshlashibdi; shunda suv parisi o'zining go'zal, oppoq qo'llarini ko'tarib, oyoq uchida turganicha go'yo havoda uchib yurgandek raqsga tushib ketibdi; hali hech kim bunchalar maftunkor o'yinga tushmagan ekan! Har bir harakati uning go'zalligini ko'z-ko'zlab turar, nigohlari esa kanizaklarning qo'shig'idan ko'ra yurakka olam-olam ma'nolar olib kirar ekan.

Hamma, xususan shahzoda qattiq junbishga kelibdi; u suv parisini o'zining jajji topilmasi deb atabdi, suv parisi esa, garchi har oyog'i yerga tekkanida tovonlari o'tkir pichoq bilan tilingandek qattiq og'risa ham, o'ynagandan-o'ynayveribdi. Shahzoda suv parisining hamisha o'z yonida bo'lishi lozimligini aytibdi, unga shahzoda xonasining eshigi oldida baxmal yostiqa uxlash uchun izn berishibdi.

Shahzoda otda birga sayr qilib yurishlari uchun unga erkakcha libos tikib berishlarini buyuribdi. Ular yam-yashil yaproqlar orasida qushlar sayrab yotgan xushhavo o'rmonlarni kezishar, yashnab turgan novdalar ularning yelkalarini siypalab qo'yar ekan. Goh yuksak tog'larga chiqishar, garchi uning tovonlaridan qonlar sizib chiqqanini barcha korib tursa ham, u xandon kulganicha shahzoda ortidan eng yuksak cho'qqilarga tirmashib chiqar, u yerda ikkalasi shundoq poylarida o'zga yurtlarga uchib ketayotgan qushlar galasi kabi oqib o'tayotgan bulutlarni zavq bilan tomosha qilishar ekan.

Kechasi shahzoda saroyida hamma uyquga ketgach, suv parisi marmar zinalar bo'ylab pastga enar ekan-da, o'tdek yonib ketayotgan oyoqlarini muzday suvga tiqqanicha o'z qadrdon uyi, dengiz tubi haqidagi xayollarga cho'mar ekan.

Shunday kechalarning birida uning qo'l ushlab olgan opalari suv yuzasiga suzib chiqishibdi va qayg'uli qo'shiq kuylay boshlashibdi; suv parisi ularga bosh irg'ab qo'yib-di, ular buni tanib qolib, hammani qanchalar ranjitib qo'yganligini so'zlab berishibdi. Shu-shu ular har kechasi suv parisining oldiga keladigan bo'lishibdi, hatto bir gal yiroqdan ko'p yillardan beri suv yuzasiga chiqmay qo'ygan keksha buvisini va boshiga toj kiyib olgan dengiz shohining o'zini ham ko'rib qolibdi, ular suv parisiga qarab qo'l silkishibdi, lekin qizning opalari kabi qirg'oqqa yaqin suzib kelishga jur'at qilisholmabdi.

Shahzoda kun sayin suv parisiga qattiqroq bog'lanib borar, lekin uni faqat aziz, ma'suma qizalag'i singari yaxshi ko'rar, unga uylanishni esa xayoliga ham keltirmas, holbuki, shahzoda uni o'ziga xotin qilib olmog'i kerak, yo'qsa, mabodo shahzoda o'z qalbini boshqa birovga baxsh etsa, suv parisi dengiz ko'pigiga

aylanib ketar ekan.

«Meni dunyoda hammadan ko'proq sevarmikansan?» — deya so'rayotgandek bo'lar ekan suv parisining ko'zlari shahzoda uni quchib peshanasidan o'pgan damlarda.

— Ha, men seni sevaman! — der ekan shahzoda. — Sening qalbing judayam yumshoq, sen menga hammadan ko'ra sadoqatlisan, xuddi men bir paytlar uchratgan yosh qizchaga o'xshab ketasan, albatta, endi uni hech qachon ko'rolmasam kerak! Men kemada suzib borar edim, kema cho'kib ketdi, to'lqinlar meni qizaloqlar ibodat qiladigan qandaydir bir ehrom oldidagi qirg'oqqa chiqarib tashladi; men u qizni atigi ikki bora ko'rdim, lekin men butun dunyoda o'shanigina sevishim mumkin! Sen xuddi o'shanga o'xshaysan va mening yuragimdan uning siymosini qariyb siqib chiqarding. U qizcha muqaddas ehromga tobe, tole yulduzim esa menga seni baxsh etdi; men sendan hech qachon ajramayman!

«Afsus! Hayotini men qutqarib qolganimni bilmaydi! — deb o'ylabdi suv parisi. — Axir, uni to'lqinlar bag'ridan qirg'oqqa men olib chiqib, ehrom oldidagi daraxtzorga men yotqizgan, so'ng o'zim unga kimdir yordam berarmikan deb dengiz ko'piklari ichida bekinib o'tirgan edim. Bu mendan-da ortiqroq yaxshi ko'radigan o'sha chiroyli qizaloqni men ham ko'rgan edim! — deya suv parisi chuqur xo'rsinib qo'yibdi, chunki u yig'lay olmas ekan-da. — Ammo u qizcha ehromga tobe, dunyoviy odamlar orasiga sirayam qaytmaydi va ular bir-birlari bilan hech qachon ko'risha olmaydilar! Men esa buning shundoq yonginasidaman, har kuni ko'raman, uning ko'nglini ovlashim, sevishim, uning uchun jonimni fido qilishim mumkin!»

Lekin, shahzoda qo'shni qirolning sohibjamol qiziga uylanar emish, shuning uchun o'zining hashamatli kemasini hozirlay boshlagan emish degan mish-mish tarqabdi. Shahzoda go'yo qo'shni qirollik mamlakati bilan tanishish uchun borayotgandek bo'lsa-da, aslida malikani ko'rish uchun borar, ko'plab mulozimlar ham u bilan birga jo'nar emish. Suv malikasi bu gaplarning barchasiga bosh tebratib kulib qo'ya qolibdi — chunki u shahzodaning o'y-flkrlarini hammadan yaxshiroq bilar ekan-da.

— Men jo'nashim kerak! — debdi shahzoda unga. — Sohibjamol malikani borib ko'rishim lozim; ota-onam shuni talab qilyapti, lekin ular meni o'sha malikaga uylanishga majbur eta olishmaydi, men esa hech qachon uni sevib qolmayman! U axir sen o'xshaydigan anavi qizga o'xshamaydi-da. Mabodo bir kunmas-bir kun qayliq tanlashimga to'g'ri kelsa, yaxshisi, seni tanlayman, mening ko'zlari bilan so'zlaydigan gung topilmam!

Shunday deya shahzoda uning aqiq lablaridan o'pib, uzun-uzun sochlarini o'ynabdi, yuragi insoniy saodat va muhabbatga chanqoq holda dukillab urib turgan ko'ksiga bosh qo'yibdi.

— Sen dengizdan qo'rqmaysan-a, jajjiginam? — debdi shahzoda qo'shni qirollikka jo'nash uchun shay turgan kemaga chiqib bo'lganlarida.

So'ng shahzoda unga po'rtanalar va dengiz sokinligi haqida, suv tubida yashaydigan g'aroyib baliqlar haqida, u yerda suv odamlarini ko'rganligi to'g'risida hikoya qila ketibdi, suv parisi esa jilmayganicha turaveribdi — chunki u dengiz tubidagi narsalarni hammadan yaxshiroq bilar ekan-da.

Kema boshqaruvchisidan o'zga hamma uxlab yotgan sutdek oydin kechalarning birida u kema qirg'og'iga o'tirib olganicha shaffof to'lqinlarni tomosha qila boshlabdi. shunda otasining saroyiga ko'zi tushgandek bo'libdi; kumush toj kiyib olgan keksa buvisi minora ustida turganicha to'lqinlanib yotgan oqimlar tubidan kema sinchiga tikilib turar ekan. So'ng opalari suv yuzasiga qalqib chiqishibdi, ular g'amgin boqqanlaricha suv parisi tomon oppoq qo'llarini cho'zishibdi, u esa jilmayganicha bosh silkib qo'yib, kemada o'zini juda yaxshi his etayotganligini opalariga hikoya qilib bermoqchi ham ekanki, shu payt yoniga yosh dengizchilardan biri kelib qolibdi, opalari apil-tapil suvga sho'ng'ishibdi, yosh dengizchi esa buni oppoq dengiz ko'pigi deb o'ylabdi.

Ertalab kema qo'shni qirollikning dabdabali poytaxti sohiliga yetib boribdi. Shahar qo'ng'iroqlari jaranglab. baland minoralardan burg'u sadolari yangrabdi; maydonlarda nayzador miltiq va hilpirab turgan bayroq ko'tarib olgan askar qatorlari saf tortibdi. Tantana boshlanib, bal balga ulanib ketibdi, biroq malika hali yo'q — u barcha shohona fazilatlarni egallash uchun olis monastirlarning birida tarbiyalanayotgan ekan. Nihoyat, u ham yetib kelibdi.

Suv parisi unga suqlanib boqibdi va o'zi ham tan olibdiki, bunday yoqimtoy va go'zal chehrani u hali ko'rmagan ekan. Malikaning badani mayin va toza, uzun qoramtir kipriklari orasidan sho'xchan moviy ko'zlari tabassum qilib turar ekan.

—Sen o'sha! — debdi shahzoda. — Men dengiz qirg'og'ida chalajon yotganimda, hayotimni qutqarib qolgan sen eding!

Va u loladek qip-qizarib turgan qaylig'ini o'z bag'riga bosib, qattiq quchibdi.

—Oh, men naqadar baxtiyorman, — debdi shahzoda suv parisiga. — Tushimga ham kirmagan orzuyim ro'yobga chiqdi! Mening baxtimdan quvonayotgan bo'lsang kerak, sen ham meni qattiq sevasan-ku, axir.

Suv parisi uning qo'lini o'pibdi, yuragi esa shunday yomon sanchibdiki, og'riqdan yorilib ketgudek bo'libdi: uning to'yi — buning o'limi-ku, suv parisi dengiz ko'pigiga aylanib ketadi-ku.

O'sha oqshom shahzoda yoshgina xotini bilan o'z diyoriga qaytishi kerak ekan; zambaraklar gumburlabdi, bayroqlar ko'tarilibdi, kema sahniga zarhal va alvon matolardan chodir tikishib, ichiga parqu to'shaklar to'shashibdi; bu sokin, salqin tunni kelin-kuyovlar ana shu chodirda o'tkazishlari kerak ekan.

Yelkanlar shamoldan tarang tortibdi, kema to'lqinlar uzra sirg'alganicha ochiq dengiz tomon yengil va ravon suzib ketibdi.

Qorong'i tushgach, kemada turli-tuman chiroqlar charaqlabdi, dengizchilar esa palubada shod-xurram o'yinga tushib ketishibdi. Ilk bora dengiz yuzasiga suzib chiqqanida kemada xuddi ana shunday o'yin-kulgini ko'rganlari suv parisining yodiga tushibdi. Shunda u kalxat quvgan qaldirg'ochday chaqqon o'yinga tushib ketibdi. Hayratdan hamma lol bo'lib qolibdi: u hali hech qachon bu qadar jozibali raqsga tushmagan ekan! Uning nafis tovonlari pichoq tilgandek og'rir, lekin u bu azoblarni sezmas, yuragi esa yanada battarroq sanchmoqda ekan. Bu kecha u evaziga qarindosh-urug'laridan, tug'ilgan uyidan kechib kelgan, o'zining sehrli ovozidan voz kechgan, chidab bo'lmas azob-uqubatlarga dosh bergan, lekin bularning hech birini xayoliga ham keltirmagan odami bilan — shahzoda bilan birgalikda o'tkazayotgan eng oxirgi kechasi ekanligini suv parisi

bilib turar ekan. Shahzoda bilan bir havodan nafas olib, moviy dengiz va yulduzli osmonlarga termilishi uchun faqat bir kechalik muddat qolibdi, xolos; undan so'ng esa suv parisi uchun o'y-xayollar surib, tushlar ko'rib bo'lmaydigan mangu zulmat boshlanadi. Kemadagi o'yin-kulgi, musiqa tun og'ib ketguncha davom etibdi, suv parisi yuragida o'lim azobi bilan sho'x-shodon raqsga tushavcribdi; shahzoda esa o'z sohibjamol xotinini o'par, u shahzodaning jingalak sochlarini o'ynar ekan; nihoyat ular qo'l ushlab o'z hashamdor chodirlariga kirib ketishibdi.

Kema tinchib qolibdi. faqat kema boshqaruvchisi o'z o'rnida qolibdi, xolos. Suv parisi kema tutqichiga suyanganicha sharqqa yuzlanib, ilk quyosh shu'lalarini kuta boshlabdi. bu shu'lalar o'zini halok etishini u bilar ekan. Shunda daf'atan dengiz yuzasiga qalqib chiqqan opalarini ko'rib qolibdi; ular ham suv parisi kabi oppoq oqarib ketgan, biroq ularning uzun va ko'rkam sochlari endilikda shamolda o'ynamas — bu sochlar kesib tashlangan ekan.

— Biz seni o'limdan xalos etish uchun o'z sochlarimizni jodugarga kesib berdik! U esa bizga mana shu pichoqni berdi — qara, u naqadar o'tkir. Quyosh chiqmay turib sen uni shahzodaning yuragiga sanchishing kerak, shunda uning issiq qoni sening oyoqlaringga sachraydi va ular tag'in baliq dumiga aylanadi, sen yana suv parisi bo'lib qolasan. Biz bilan dengiz tubiga tushib, sho'rtang dengiz ko'pigiga aylanadigan muddating kelgunicha rosa uch yuz yil yashab qolasan. Yo shahzoda, yoki sen — ikkalangizdan biringiz quyosh chiqqunicha halok bo'lishingiz kerak. Shahzodani o'ldirib, bizning huzurimizga qayt. Tez bo'l. Qarasangchi, osmonda alvon yo'llar paydo bo'ldi. Hademay quyosh chiqadi va sen halok bo'lasan.

Shunday deya ular chuqur nafas olib, dengizga sho'ng'ib ketishibdi.

Suv parisi chodirning alvon pardasini ko'taribdi, ko'zi shahzoda va uning ko'ksiga bosh qo'yganicha orom olayotgan kelinchakka tushibdi. U egilib shahzodaning ko'rkam manglayidan o'pibdi, tong otib kelayotganidan darak beruvchi osmonlarga tikilibdi, so'ng yana bir pichoqqa, bir shahzoda chehrasiga nigoh tashlabdi, shahzoda tushida xotining nomini takrorlabdi — uning butun fikr-u yodi o'z xotinida ekan! Shunda suv parisining pichoq tutgan qo'llari titrab ketibdi. Shu lahzadayoq u pichoqni to'lqinlar qa'riga itqitibdi, xuddi pichoq tushgan joy qizarib ketibdi va suv yuzasiga bir tomchi qon qalqib chiqibdi.

U so'nib borayotgan nigohlari bilan so'nggi marta shahzodaga tikilibdi-da, o'zini kemadan dengiz og'ushiga otib-di va a'zoyi badani ko'pikka aylanib borayotganini his etib turibdi.

Dengiz uzra quyosh ko'tarilibdi; uning nurlari karaxt — sovuq dengiz ko'pigiga harorat baxsh etibdi va suv parisi o'limni his etmay qo'yibdi; u charaqlab turgan quyoshni, tepasida uchib yurgan yuzlab qandaydir shaffof, g'aroyib mavjudotlarni ko'ribdi. U bu mavjudotlar orasidagi oppoq yelkanlarni, osmonda suzib yurgan pushtirang bulutlarni ko'ribdi; ular xuddi musiqadek ohang taratar, lekin bu ohanglar shu qadar yuksak ekanki. inson ko'zi ularning o'zini ko'rolmagani kabi, qulog'i ham bu sadolarni eshitolmas ekan. Ularda qanot bo'lmasa-da, havoda shaffof va yengilgina suzib yurar ekan. Dengiz ko'pigidan ajralib chiqqan suv parisi o'zini ham xuddi ana shunday shaffof va yengil his etibdi.

—Men kimning huzuriga ketayotirman? — deb so'rabdi u havoga ko'tarilar ekan, uning ovozi xuddi yoqimli musiqa kabi yangrabdi.

—Havo qizlarining huzuriga! — deya javob berishibdi unga samoviy mavjudotlar. — Biz hamma joyda uchib yuramiz va barchaga shodlik baxsh etishga intilamiz. Vabo tashuvchi jazirama havodan odamlar halok bo'ladigan o'lkalarga biz sarinlik olib boramiz. Biz havoga gullar atrini taratamiz va kishilarga shifo, shodlik tashib eltamiz... Sen ham biz bilan bulutlardan yuksak dunyolarga parvoz etasan!

U yerda sen zaminda topa olmaganing muhabbatga, baxt-saodatga erishasan.

Suv parisi o'zining shaffof qo'llarini quyoshga tomon cho'zibdi va ilk bora ko'zlariga yosh qalqib kelganini his etibdi.

Shu payt kemada tag'in jonlanish boshlanibdi, suv parisi shahzoda o'zining yoshgina xotini bilan uni izlashga tushganini ko'ribdi. Suv parisi o'zini to'lqinlar og'ushiga otganini bilib, ular chayqalib yotgan dengiz ko'piklariga g'amgin termilib qolishibdi. Ko'rinmas bo'lib qolgan suv parisi go'zal malikaning manglayidan o'pibdi, shahzodaga jilmayib qo'yibdi-da, havoning boshqa bolalari bilan samoda suzib yurgan pushtirang bulutlar sari yuksalib ketibdi.